
BAYRAM TADBIRI O'TKAZILDI

Bugun tumanimizdagi "Baxt" to'yxonasida O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati tashkil etilganligining 90 yilligini munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Bayram tadbirida sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinbosarlari ishtirok etishdi. Ma'lumki, mamlakatimizda sunggi besh yilda nogironligi bulgan shaxslar, jumladan, ko'zi ojiz fuqarolarni manzilli ijtimoiy himoya qilish, ularga samarii tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasida keng qamrovli ishlar bajarildi. Xususan, ko'zi ojiz shaxslarni manzilli ijtimoiy himoya bilan qamrab olish kengaytirilib, ularni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati tashkil etilganligining 90 yilligini munosib o'tkazish maqsadida o'tkazilgan tadbir ham ko'tarinki ruhda o'tib, nogironligi bo'lgan fuqarolarimiz uchun o'ziga xos sovg'a bo'ldi. Tadbirda tuman madaniyat bo'limi xodimlari va taniqli qiziqchi Abdurahmon Siddiqovlar o'z chiqishlari bilan ishtirokchilarni xushnud etishdi.

2022-05-28 19:03:11